

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA CHET TILLARNI O‘QITISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

*Andijon davlat chet tillar institute
tilshunoslik fani o‘qituvchisi Xomidova Malohatxon
Tohirov Nurmuhammad
Andijon Davlat chet tillari instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasini rivojlantirishda chet tillarini o‘qitishning zaruriyati va ahamiyati, hozirgi holati hamda uni yana da rivojlantirishning usulari haqida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turizm, tursit ,tarjimon,investitsiya,chet tillari,Ibrat farzandlari,sertifikat ,oratorlik,tajriba , Yoshlar forumi, Yoshlar ishlari agentligi

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2016 yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2015 yilda eng ko‘p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o‘ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.

Turizm bu – investitsiya degani. Qanchalik ko‘p turistlar tashrif buyursa, shunchalik darajada valyuta kirib keladi. Albatta, turistlar ham quuruqdan quruq joyga tashrif buyurib qimmatli vaqtini va mablag‘ini bekordan-bekorga sarflamaydi. Diqqatga sazovor va qadimiy joylari ko‘p bo‘lgan davlatga boradi. Shu bilan birga iqlimi, ob-havosi va tabiatiga ham e‘tibor beradi. Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasida quyida aytib o‘tilganlardan tashqari yaxshi tarjimon ham juda ham zarur. Yaxshi tarjimon bo‘lish uchun esa chet tillarini mukammal o‘rgangan va chet tillarida ravon gapira oladigan bo‘lishi kerak. Chet tilini o‘rganish davomida aynan o‘sha davlatning tilinigina emas, madaniyatini ham o‘rganib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tarjimonlik qilish davomida ma'lumotlarni va madaniyatini taqqoslab tushuntirib berish mumkin. Yana bir muhim narsa bu – tarix. Tarixni yaxshi bilsa, barcha vaziyatda osongina tarjimonlik qilish mumkin. Qanchalik kerakli ma'lumotlarni to‘plab, o‘rganib borsa qachondir, qayerdadir kerak bo‘lib qoladi.

Yurtimizda ham chet tillarini o‘qitishga katta e‘tibor berib kelinmoqda. Davlat muassasalarida hamda xususiy ta‘lim dargohlarida malakali o‘qituvchi va professorlar talabalarga ta‘lim berib kelmoqda. Bolaga bog‘cha davridan chet tillarini o‘rgatishmoqda. Shunday qilib yoshgina bolalar maktabga o‘z ona tilisidan tashqari yana bir yoki ikki chet tillarini bilgan holda kirishmoqda. Maktabda ham turli xil metodikalar yordamida o‘quvchilarga tillarni qizqarli tarzda o‘rgatishmoqda. Yana bir quvonarli tarafi Ta‘lim markazi chet tillarini o‘rganish va o‘rgatishni

osonlashtirish va yengillik yaratish uchun o'quv markazlardagi soliqlarni oldingiga qaraganda pasaytirib, ko'plab imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Oliy ta'lim maskanlarida ham katta tajribali va ilm salohiyati baland o'qituvchilardan tashqari chet el mamlakatlaridan shaxsan chet elliklarning o'zlari kelib dars o'tishlarigacha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xalqaro va milliy til sertifikatlarini ham o'zimiz xohlagan paytingizda imtihonlarni topshirib darja olishingiz mumkin. Jumladan, chet tillari imtihonidan C1 va C2 daraja sertifikatlarini qo'lga kiritganlar uchun imtihon harajatlarini to'liq qoplab berishayapti. Muhtaram prezidentimiz 2020-yil 25-dekabr kuni “Yoshlar forum”ida aytib o'tdiki: “Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz bekor o'tmasin. Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm yo'lida o'tda yonmayigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanligini unutmang!” deb bejiz aytmagan.

Til o'rganish orqali erishiladigan imkoniyatlar haqida soatlab fikr yuritish mumkin. Ammo bu ko'nikmani shakllantirish oson emas. Til o'rganishda malakali ustoz, samarali strategiya, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash birlamchi hisoblanadi. Hozirda O'zbekistonda til o'rgatuvchi professional kadrlar tanqisligi mavjud. Mamlakatda asosiy urg'u mashhur va ommabop tillarga qaratilgan. Kadrlar ham asosan ingliz tiliga ixtisoslashgan mutaxassislardir. Masalan, ispan yoki yapon tilini o'rganishni istagan hammaga ham o'qituvchi yetarli emas. Professional mutaxassislar esa odatda markazlarda bo'ladi. Chekka-chekka hududlarda yashovchi aholi esa shaharga yetib borishi qiyin.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan Ibrat Farzandlari loyihasi xorijiy tillarni bepul, sodda va kreativ usulda o'rgatishni maqsad qilgan. Loyiha doirasida professional ustozlar tomonidan 13 ta til bo'yicha 22 turdagi tizimli va noldan boshlangan darslar majmuasi ishlab chiqilmoqda. Ibrat Farzandlari bilan turli tillar bo'yicha bilimlarni qisqa muddat ichida xoxlovchilar o'zi uchun qulay bo'lgan yerdan turib egallashlari mumkin. Loyiha barcha uchun teng ravishda istalgan joyda, istalgan vaqtda bepul til o'rganish imkonini beradi. Ibrat Farzandlari qisqa vaqt ichida YouTube'da qariyb 320 mingdan ortiq o'rganuvchiga ega bo'ldi. Sahifada e'lon qilingan darslarning umumiy ko'rishlar soni 12 mln dan oshdi. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda yoshlar o'rtasida chet tilini rivojlantirish muhim o'rin tutadi va bu yo'nalishda bepul onlayn-darslarga talab yuqori. Loyiha O'zbekistonning chekka hududlaridagi iste'dodli yoshlarga, moliyaviy tomondan imkoniyati cheklangan, lekin chet tillarini o'rganishga ishtiyoqi baland o'quvchilarga ham xorijiy tillarni o'rgatish, ularning tillar bo'yicha savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunday platformalar orqali tez va oson o'rgangan holda yaxshi kadr bo'lib yetishishimiz mumkin. Shunday qilib, tilni o'rganishda va o'rgatishdagi ko'plab muammolar bartaraf etilmoqda. Bundan esa biz oqilona foydalangan holda, tilni chuqur o'rganib yurtimiz ravnaqiga o'z xissamizni qo'shsak, olgan bilimlarimizni hallolgan bo'lamiz. Kelajakda bunday loyihalar yana da ko'paysin.

XULOSA

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, turizm sohasini rivojlantirish uchun chet tillarini o'qitish juda zarur. O'qitishda ham shunchaki eskirib ketgan usullardan emas, yangicha usullardan foydalanib, yangicha metodikalardan foydalanilsa, qisqa vaqt ichida sifatli ta'kimni olish mumkin. Chet tillarini o'rganishda aynan o'sha chet ellik mutaxassislardan ham o'rgansak, yanada chuqur tushunib yetishimiz mumkin. Hamda yana bir muhim narsa, chet tillarini faqatgina yoshlar yoki o'quvchilar o'rganishi kerak degani emas. Boshqa kasb egalari ham o'z sohasiga kerak bo'ladigan maxsus so'zlarni o'rganib qo'ysa ham chet ellik turistlarda yaxshi tassurot qoldiradi. Keyinchalik u turist yana boshqa guruhni ham taklif qilishi, yana tashrif buyurishi mumkin. Bundan esa o'sha kasb egasining brendiga ham, cho'ntagiga ham yaxshigina foyda olib keladi. Xattoki, rasmiy takliflar bilan chiqib qolishlari mumkin. Buning barchasi shu chet tilini ozgina bo'lsada o'rganib qo'ygani, mehnati uchun bo'ladi.

Chet tilini o'rgandi tarjimonlik qila oladi degani emas. Buning uchun til o'rganishning o'zi kamlik qiladi. Muomala-madaniyat, boshqalar oldida o'zini tutishi, oratorlik qobilyati, o'z fikrini erkin yetkazib bera olishi, tarixiy bilimlari juda katta rol o'ynaydi. Quyida aytib o'tilganlarning kopini tajribalar orqasi o'zimizda shakllantirishimiz mumkin.

Keyin til o'rganishning yana bir katta foydali tomoni shundaki, biz qanchalik ko'p chet tillarini bilsak, shunchalik ko'p aqli insonlar bilan muloqorda bo'lib, ular bilan fikr almashgan holda dunyoqarashimizni kengaytirishimiz mumkin. Internet olamida ham ko'plab foydali kontentlar chet tillaridaligi sababli, ukarni ham osonlik bilan tushunib ko'plab ma'lumotlarni boshqalarga nisbatan tez, batafsil o'rganishimiz mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, nafaqat turizm, balki boshqa hamma sohada ham chet tillari kerak. "Meni yoshim o'tib qoldi" deb o'tirgandan ko'ra hoziroq o'zingizga yoqqan chet tilini tanlang va o'rganing. Dono xalqimiz "Til bilgan – el biladi" deb bejizga aytmaydi. Biz qancha ko'p chet tillarni bilsak, bizning kelajagimiz uchun yorqin kelajakli eshiklar birma bir ochilib boriladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/05/ibrat-academy/>
2. <https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>
3. <https://yuz.uz/uz/news/otda-yonmas-suvda-chokmas-meros>